

HUJAYRA BIOLOGIYASI.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Biologiya fakulteti

Sirtqi ta'lim yo'nalishi 402-guruh talabalari

Ishni bajardilar:

Abdugapporova E'zoza

Ibragimova E'zoza

Safarov Jasur

Fanni o'qituvchi: Abdunazarova Zulayho

Annotatsiya

Ushbu maqolada hujayra biologiyasi fani, uning mazmuni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Hujayra tirik organizmlarning eng kichik tarkibiy va funksional birligi sifatida tavsiflanadi. Maqolada hujayraning umumiy tuzilishi, asosiy organoidlari, ularning vazifalari hamda hujayra bo'linish turlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, hujayra biologiyasining tibbiyot, genetika, biotexnologiya va ekologiya sohalaridagi o'rni yoritilgan. Ushbu fan orqali tirik mavjudotlarning hayotiy jarayonlarini chuqur anglash, ularning rivojlanish va moslashuv mexanizmlarini tushunish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: hujayra, biologiya, organoid, mitoz, meyoza, genetik axborot, sitoplazma, yadro, tibbiyot, biotexnologiya.

Kirish

Hujayra biologiyasi – bu tirik organizmlarning eng kichik tarkibiy va funksional birligi bo'lgan hujayra tuzilishi, faoliyati va rivojlanishini o'rganadigan biologiya sohasi. Hujayra barcha tirik mavjudotlarning asosiy birligi hisoblanadi. Bu fan biologiyaning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lib, tibbiyot, genetika, biotexnologiya va ekologiya kabi ko'plab sohalarining nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy**qism**

1. Hujayraning umumiy tuzilishi
Har bir hujayra uch asosiy qismdan iborat: hujayra membranasi, sitoplazma va yadro. Hujayra membranasi hujayrani tashqi muhitdan ajratadi va modda almashinuvini boshqaradi. Sitoplazma hujayra ichini to'ldirib turuvchi modda bo'lib, unda turli organoidlar joylashgan. Yadro esa genetik axborotni saqlovchi markaz hisoblanadi.
2. Hujayra organoidlari
Mitochondriyalar energiya ishlab chiqaradi, ribosomalar oqsil sintezida ishtirok etadi, endoplazmatik to'r moddalarning harakatini ta'minlaydi, Golji apparati moddalarning yig'ilishi va tashqariga chiqarilishini boshqaradi, lizozomalar esa keraksiz qismlarni parchalaydi.
3. Hujayraning bo'linishi
Hujayra hayoti davomida o'sadi, o'zgaradi va bo'linadi. Bo'linish turlari: mitoz — o'sish va to'qimalarning yangilanishi uchun, mejoz — jinsiy hujayralar hosil bo'lishi uchun zarur.
4. Hujayraning ahamiyati
Hujayra hayotning asosi bo'lib, tirik organizmlarning barcha hayotiy jarayonlari aynan hujayra darajasida kechadi. Hujayra biologiyasini chuqur o'rganish inson, o'simlik va hayvon organizmlarining rivojlanishi hamda kasalliklarning kelib chiqish sabablarini tushunishga yordam beradi.

Xulosa

Hujayra biologiyasi fanini o'rganish orqali tirik mavjudotlarning hayotiy faoliyati, irsiyat, rivojlanish va ekologik moslashuv mexanizmlarini chuqur anglash mumkin. Har bir ilmiy kashfiyotning asosi hujayrani o'rganishdan boshlanadi. Shu bois, bu fan biologiya ta'limining poydevoridir.

Foydalanilgan adaviyotlar

1. Karp, Gerald. Cell and Molecular Biology: Concepts and Experiments. John Wiley & Sons, 19-oktabr 2009-yil — 2-bet. ISBN 9780470483374. „Hooke called the pores cells because they reminded him of the cells inhabited by monks living in a monastery.“

2. Tero, Alan Chong. Achiever's Biology. Allied Publishers, 1990 — 36-бет. ISBN 9788184243697. „In 1665, an Englishman, Robert Hooke observed a thin slice of" cork under a simple microscope. (A simple microscope is a microscope with only one biconvex lens, rather like a magnifying glass). He saw many small box like structures. These reminded him of small rooms called "cells" in which Christian monks lived and meditated.“

3.Zaxarov V.B..Mamatov S.G.,So-n i i V.I., Obshaya biologiya. M., 2002; Ch ye n - sov Yu.S., Obshaya sitologiya, M., 1984; Grin N., Staut U., Teylor D., Biologiya, t. 1—3. M., 1990; M avlonov O., Biologiya (Ma'lumotnoma|, T., 2003.